

PIRIMQUL QODIROV IJODIDA YOSHLAR OBRAZI

Botirova Anaxon

Urganch davlat universiteti

Filologiya va san'at fakulteti

2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida Pirimqul Qodirov qalamiga mansub asarlarda yoshlar obrazi qay darajada ishtirok etgani muhokama ostiga olingan. “Uch ildiz”, “Olmos kamar”, “Qadrim”, “Meros”, “Jon shirin” kabi asarlarning qahramonlari misol sifatida tasvirlangan.

Kalit soʻzlar: roman, obraz, qahramon, asar, muallif, yoshlar, qissa.

ОБРАЗ МОЛОДЕЖИ В ТВОРЧЕСТВЕ ПИРИМКУЛА КАДЫРОВА

Анахон Ботырова

Ургенчского государственного университета

Факультет филологии и искусства

студент 2 курса

Аннотация: В данной исследовательской работе обсуждалось, насколько образ молодежи затронут в творчестве Пиримкула Кадырова. В качестве примеров описаны герои таких произведений, как «Три корня», «Бриллиантовый пояс», «Моя ценность», «Наследие», «Сладкая душа».

Ключевые слова: роман, персонаж, герой, произведение, автор, юноша, рассказ.

THE IMAGE OF YOUTH IN THE WORK OF PIRIMQUL KADYROV

Botirova Anakhon

Abstract: This research paper discusses the extent to which the image of youth is present in the works of Pirimqul Kadyrov. The heroes of such works as “Three Roots”, “Diamond Belt”, “My value”, “Heritage”, “Soul is sweet” are described as examples.

Keywords: novel, image, hero, work, author, youth, story.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi, o‘tkir qalam sohibi Pirimqul Qodirovning ijodini boyitgan deyarli barcha asarlari inson manfaatiga, uning kelajagiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham ijodkorni inson ruhiyatining tarjimoni desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Adib yurt ertasi, uning gullab-yashnashi yoshlar qo‘lida ekanligini anglagan holda deyarli barcha asarlarida yoshlar obrazini bosh qahramon darajasiga ko‘taradi.

Pirimqul Qodirov – yoshlar yozuvchisi. Uning zamonaviy mavzuda yaratilgan barcha asarlarining qahramonlari yoshlar. Yozuvchi asarlarida ularning orzu-o‘ylari, muhabbati, yutuq va kamchiliklari, hayotga ilk qadam qo‘yishdagi yetar-yetmasliklari, ular boshiga tushadigan qiyinchiliklar aks etgan. Bu jihatdan uning har bir asari – yoshlar uchun saboq daftari. Shu boisdan ham yoshlar tomonidan sevib o‘qiladi. Adibning yoshlar bilan jonli muloqoti alohida e‘tiborga sazovordir. U ko‘plab yoshlar bilan xat olishib, xat yozishar, ular o‘z sirlarini tortinmasdan unga yetkazishardi.

Adib qalamiga mansub dardlabki roman – “Uch ildiz”ni tom ma’noda yoshlar uchun yozilgan roman deya tan olmaslikning iloji yo‘q. Negaki asar boshdan oyoq jamiyatdagi yoshlar qatlamiga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, oila muqaddasligini anglatish, komil inson xususiyatlarini singdirishga xizmat qiladi. Yoshlarga hayot yo‘llarida hamisha suyanch bo‘la oladigan insonlar – ota-onalari va ustozlari ekanligi asar davomida ko‘plab misollar orqali tushuntiriladi. Pirimqul Qodirov

ijodga kirib kelishi bilanoq zamona ruhini, uning istiqbolini ko‘rishga harakat qilgan. Bu vazifani esa o‘z qahramonlariga ishonib topshirgan. U Mahkam, Ochil, Zamira, Gavhar, Sergey, Anna singari yoshlar xarakteri orqali yasharayotgan zamonni, kishilar ruhini egallab borayotgan ishonch, e’tiqod, jo‘shqinlikni aks ettiradi. Romanning yosh, sururiy qahramonlari Toshkentni yangicha ko‘z bilan ko‘radilar. Navoiy nomidagi teatrning me’moriy o‘ziga xosligi, shu teatr maydonidagi g‘o‘za chanog‘i shaklidagi favvora, tunlarni kunduzday yoritib turgan rang-barang elektr chiroqlar, tep-tekis asfalt ko‘chalar, tramvay, trolleybuslar yosh qahramonlar diqqatidan chetda qolmaydi. Skver maydonidagi yagona universitet binosiga Mahkam, Gavharlar g‘urur bilan boqadilar. Ularning har biri o‘ziga xos iste’dod egasi. Kimdir she’riyatni bor vujudi bilan yaxshi ko‘rsa, yana kimdir me’morchilik obidalariga, ularning naqsh va jilolariga qiziqadi, boshqasi esa tarix fanining haqiqiy mutaxassisi bo‘lishga intiladi. Ammo ularni yagona istak – yurt koriga yaraydigan farzand bo‘lish hissi birlashtirib turadi.

Taniqli munaqqid Abdug‘afur Rasulovning “Zamon san’atkor talqinida” nomli maqolasida Pirimqul Qodirovning salmoqdor ijod yo‘li haqida gap boradi: “Qadrim”, “Erk”, “Meros”, “Olmos kamar” ning asosiy qahramonlari ham yoshlar. Yozuvchi yoshlar, voyaga yetayotgan avlodda hayotdagi yangilik kurtaklarini ko‘radi. Yoshlar deganda yozuvchi umrning ilk bosqichidagi kishilarnigina emas, hayotning yangilanayotgan qonuniyatlarini, ijtimoiy-ma’naviy, ruhiy o‘zgarishlarini anglaydi”. Haqiqatan ham shunday, “Meros”dagi Yolqin qishlog‘idagi odamlar og‘ir mehnatdan halos bo‘lishini, o‘quvchilar o‘z yumushi bilan shug‘ullanishini ta’minlash maqsadida qishlog‘iga yangilik olib kirdi, ya’ni paxta teradigan mashinani ixtiro qilish orqali inson mehnatini yengillashtirdi. “Qadrim”dagi Iskandar inson o‘z sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishini anglab yetgani holda o‘z kasbining fidoyisi bo‘lib yetishdi, yong‘inda qahramonliklar ko‘rsatdi, sevgisiga ham yetishdi. “Olmos kamar” dagi Abror – mahoratli me’mor, o‘z Vatanining chiroyiga chiroy bag‘ishlash, Toshkentni dunyodagi eng toza va

go‘zal diyorga aylantirish uning asosiy orzusidir. “Jon shirin” dagi Muzaffar ham xalq orasida bo‘layotgan adolatsizliklarga chiday olmay haqiqiy ma’noda isyon ko‘taradi. “Amal kursisi”da o‘tirgan kimsalarning qilmishlarini fosh etish, begunoh insonlarning umriga zomin bo‘lgan odamlarning xunrezliklarini oshkor qilish, fikrida sobit tura olish asar qahramoni Muzaffarga xos xususiyat, albatta. Pirimqul Qodirov ana shunday vatanparvar, insonparvar yoshlar hayotiga murojaat qildi, ularni o‘z asarlariga asosiy timsol qilib oldi.

Xulosa sifatida aytishim mumkinki, iste’dodli adib Pirimqul Qodirov ijodidagi qahramon yoshlar zamonning rivoji, yurtning tayanchi uchun beminnat xizmat qiladi. Har birining asarda o‘z o‘rni mavjud. Bu esa muallifning ajoyib novator ekanligidan dalolat beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Qo‘shjonov M. Diydor//O‘tkir qalamli adib. – T.: “Sharq”, 2004.
2. Rasulov A. Betakror o‘zlik//Zamon san’atkor talqnida. – T.: “Mumtoz so‘z”, 2009.
3. <https://www.ziyouz.com>